



**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MANTIQUIY
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA DARSLIKLARNING O‘RNI**

G‘afforova Zarnigor Abdumo‘min qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda darsliklarning o‘rni kompleks tarzda tahlil qilinadi. Darsliklarning didaktik imkoniyatlari, ularning struktura va mazmuniy xususiyatlari, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unligi o‘rganiladi.

Аннотация: В данной научной статье комплексно анализируется роль учебников в развитии логического мышления учащихся начальных классов. Изучаются дидактические возможности учебников, их структурные и содержательные особенности, а также их совместимость с современными педагогическими технологиями.

Annotation: In this scientific article, the role of textbooks in the development of logical thinking of Primary School students is analyzed in a complex way. The didactic possibilities of textbooks, their structure and content characteristics, as well as their compatibility with modern pedagogical technologies are studied.

Kalit so‘zlar: Mantiqiy tafakkur, boshlang‘ich ta‘lim, darslik, didaktika, pedagogik texnologiya, fikrlash jarayoni, yangi avlod darsligi, izchillik.

Ключевые слова: Логическое мышление, начальное образование, учебник, дидактика, педагогическая технология, мыслительный процесс, учебник нового поколения, последовательность.

Keywords: Logical thinking, primary education, textbook, didactics, pedagogical technology, thinking process, new generation textbook, consistency.

Zamonaviy ta‘lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — bu o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarga yechim topish kompetensiyalarini shakllantirishdir. Bu jarayon ayniqsa boshlang‘ich ta‘lim bosqichida muhim ahamiyatga ega, chunki aynan shu davrda bolalarda tafakkur asoslari shakllanadi.





Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni amalga oshirish pedagogik sharoitlarini joriy etish matematika, ona tili va o'qish savodxonligi, tabiiy fanlarni o'zlashtirish doirasida darsda va darsdan tashqari vaqtda amalga oshirilgan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ma'lum imkoniyatlarni ochib berdi. Mantiqiy fikrlash qobiliyatlarni rivojlantirishda invariant va variativ didaktik funksiyalarni alohida o'rganib chiqdik. Birinchi navbatda, variativ didaktik funksiyalar deganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarga ta'limda formal o'qitishdan holi bo'lgan holda, ta'lim mazmunini har xillashtirish va o'zgartirishga erishish ekanligi anglanadi. Invariant didaktik funksiyalar variativ didaktik funksiyalar aksi bo'lib, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarni rivojlantirishda ta'lim mazmunini bir xillikka erishishidir. O'quvchilarda mantiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish mezonlari mantiqiy-ijodiy qobiliyatlar tuzilmasini hosil qiluvchi bloklar orqali ishlab chiqildi.

Mantiqiy tafakkur — bu shaxsning borliqni anglash, sabab-oqibat aloqalarini tushunish va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Ushbu tafakkur turini rivojlantirishda ta'lim vositalari, xususan, darsliklar muhim rol o'ynaydi. Mantiqiy tafakkur bu fikrlashning eng yuqori shakllaridan biri bo'lib, u analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va abstraksiyalash kabi aqliy operatsiyalar orqali namoyon bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu jarayon asta-sekin rivojlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq obrazli va konkret tafakkurga ega bo'ladilar. Shu sababli ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun:

- ko'rgazmali vositalar
- real hayotiy misollar
- oddiydan murakkabga o'tuvchi topshiriqlar

zarur hisoblanadi.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish omillari

- Ta'lim mazmuni
- O'qitish metodlari
- Didaktik vositalar
- O'qituvchining pedagogik mahorati

Shular ichida darsliklar markaziy o'rin egallaydi.





Darslik — bu o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan, o‘quvchilarga bilim beruvchi va ularning mustaqil faoliyatini tashkil etuvchi asosiy vositadir. U nafaqat bilim manbai, balki tafakkurni rivojlantiruvchi instrumentdir.

Zamonaviy darsliklar quyidagi komponentlardan iborat bo‘lishi lozim:

- Nazariy materiallar
- Amaliy mashqlar
- Mustaqil ish topshiriqlari
- Muammoli vaziyatlar
- Nazorat savollari

Darsliklarda quyidagi topshiriqlar bo‘lishi samarali hisoblanadi:

- Taqqoslashga oid topshiriqlar
- Tahlil va sintez mashqlari
- Sabab-oqibatni aniqlashga oid savollar
- Mantiqiy masalalar
- Muammoli vaziyatlar

Yangi avlod darsliklarida Vizual materiallarning roli katta.

Rasmlar, diagrammalar, jadvallar o‘quvchilarning:

- tushunishini osonlashtiradi
- qiziqishini oshiradi
- mantiqiy bog‘lanishlarni tezroq anglashga yordam beradi

Interfaol metodlar orqali darslik materiallari yanada samarali o‘zlashtiriladi.

Masalan:

- “Aqliy hujum”
- “Klaster”
- “Insert” usuli

Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Darsliklarda bunday topshiriqlar mavjud bo‘lishi juda muhim.

O‘qituvchi darslikdan foydalanishda:

- topshiriqlarni to‘g‘ri tanlashi
- differensial yondashuvni qo‘llashi
- o‘quvchilarni rag‘batlantirishi

zarur.





Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki:

- Mantiqiy topshiriqlarga boy darsliklar bilan ishlagan o'quvchilar yuqori natijalarga erishadi
- Muammoli mashqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi
- Vizual materiallar o'zlashtirish darajasini oshiradi

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda yangi avlod darsliklarini o'rni katta. O'quvchilarni xalqaro baholash dasturiga tayyorlash bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy muommolaridan biri hisoblanadi. Xalqaro baholash dasturi asosan mantiqiylikka asoslangan. Bolalarning tafakkurining kengligi ham muhim sanaladi. Buning uchun bizning darsliklarimiz ham shunga mos bo'lishi lozim. Shu sababdan yangi avlod darsliklari bugungi kun talabiga mos ravishda tuzilmoqda. Darslik o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga, dunyoqarashini kengaytirishga va zamonaviy bilimlarni berishga asoslangan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda darsliklar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy talablar asosida ishlab chiqilgan, mantiqiy topshiriqlarga boy, interfaol yondashuvlarni o'z ichiga olgan darsliklar ta'lim samaradorligini oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, to'g'ri ishlab chiqilgan darsliklar o'quvchilarning analitik, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Shu bois:

- darsliklarni takomillashtirish
 - zamonaviy metodlar bilan boyitish
 - o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish
- dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori. 10.12.2018-yil, 09/18/997/2289-son.
2. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. Toshkent.2019 yil, 29-aprel.





3. A. A. Ismailov, X. J. Daminov va b. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma. Toshkent, 2021. 148 b.

4. A. A. Ismailov, X. J. Daminova va b. Kreativ fikrlashni baholash. T.: "Milliy markaz", 2021, 95 b.

5. A. B. Rajiyev, A. A. Ismailov, J. R. Narziyev va b. O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi. Qo'llanma. Toshkent -2019. 62 bet.

6. A. Ismailov, D. Norboyeva va b. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Metodik qo'llanma. T.: "Sharq", 2019. 92 bet.

7. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilimni baholashda xalqaro tajribalardan foydalanish: muammo va yechimlar. Vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2020-yil 14-mart. -288 b.

8. Ina V.S.Mullis va Michail O. Martin. PIRLS -2021 aholash qamrov doirasi. Ta'lim sifatini baholash o'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi matbaa bo'limi. Toshkent-2021

